


“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi




2025-yil 27 - may
M.O.

“TASDIQLAYMAN”
O‘zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab ta’limi
vazirligi



2025-yil 28 - may
M.O.

“KELISHILDI”
O‘zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi



2025-yil 20 - may
M.O.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
YURIDIK KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI
OSHIRISH INSTITUTIDA YURIDIK KADRLARNI QAYTA
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISHGA QO‘YILADIGAN
DAVLAT TA’LIM TALABLARI**

Toshkent – 2025

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING DAVLAT TA'LIM TALABLARI

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan

DAVLAT TA'LIM TALABLARI

Rasmiy nashr

ГОСУДАРСТВЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТРЕБОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

к переподготовке и повышению квалификации юридических кадров в
Институте переподготовки и повышения квалификации юридических кадров
при Министерстве юстиции Республики Узбекистан

Официальное издание

STATE EDUCATIONAL REQUIREMENTS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

for retraining and advanced training of legal personnel at the Training Institute for
Lawyers under the Ministry of Justice of the Republic of Uzbekistan

Official publication

Mundarija

Kirish	3
1. Ta'riflar	4
2. Qo'llanish sohasi	6
3. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi tuzilmasi	7
4. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshiruvchi davlat organlari hamda tashkilotlarining vakolatlari	7
5. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning shakllari	8
6. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar	9
7. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv yuklamasi va hajmi	9
8. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan umumiy talablar	10
9. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kursi tinglovchilariga beriladigan hujjatlar	10
10. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar	10
11. O'quv jarayonini tashkil etish, nazorat qilish hamda baholash tartibi	11
12. Malaka talablari obyektining tavsifi	11
13. Boshqa hujjatlar bilan o'zaro aloqadorligi	11
14. Yakuniy qoidalar	11

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutida yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan Davlat ta'lim talablari O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi, "Advokatura to'g'risida"gi, "Arxiv ishi to'g'risida"gi, "Mediatsiya to'g'risida"gi, "Notariat to'g'risida"gi, "Sud ekspertizasi to'g'risida"gi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuridik xizmat faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2733-son, "Ijro.gov.uz" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-son Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining "Arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 174-son, "Patent vakillari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 298-son, "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to'g'risida"gi 206-son, "Nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 180-son, "Davlat organlari va tashkilotlarining arxiv ishi va ish yuritish sohasidagi ekspert komissiyalari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 538-son, "Yuridik xizmatlar xodimlarini attestatsiyadan o'tkazish va ularning malakasini oshirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 244-son, "Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha tayyorlash tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 189-son hamda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 171-son qarorlariga asosan yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimiga qo'yilgan majburiy talablarni belgilaydi.

Ushbu Davlat ta'lim talablari yuridik hamda turdosh ta'lim sohalaridagi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv jarayoniga tatbiq etiladi.

1. Ta'riflar

1.1. Mazkur Davlat ta'lim talablarida quyidagi ta'riflardan foydalaniladi:

buyurtmachi – qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarida ta'lim olish uchun murojaat qilgan jismoniy yoki yuridik shaxs;

malaka talablari – tinglovchilarning umumiy bilim va kasb tayyorgarligi darajasiga qo'yiladigan talablar majmui;

qayta tayyorlash – davlat va jamiyat qurilishi sohasini yanada demokratlashtirish jarayonlari, shuningdek, davlat hokimiyati hamda boshqaruvi sohasida xalqaro standartlar va talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilgan o'quv dasturlari asosida zarur nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish orqali yangi kasbiy faoliyatga yo'naltirishga qaratilgan o'qitish shakli;

malaka oshirish – tegishli o'quv dasturlari talablaridan kelib chiqqan holda, mutaxassislarning malaka va ko'nikmalarini muntazam ravishda yangilab borish orqali ularning kasbiy bilim va mahorati oshirilishini ta'minlashga qaratilgan o'qitish shakli;

tinglovchi – tegishli to'lovni amalga oshirgan va o'quv kurslariga qabul qilingan jismoniy shaxs;

o'quv dasturi – o'quv kursining ta'lim mazmunini, uning tinglovchilar tomonidan o'zlashtirilishining maqsadga muvofiq usullarini tashkil etishni nazarda tutadigan, axborot manbai bo'lgan, mutaxassisliklarning malaka talablari, o'quv kursining asosiy mazmuni va metodik tuzilishini aniqlab beruvchi asosiy hujjat;

o'quv rejasi – bloklar/modul va o'quv fanlari (kurslar)ning nomlarini, ularni o'zlashtirish uchun ajratilgan soatlar hajmini hamda tinglovchilarning bilimlarini nazorat qilish shakllarini belgilab beruvchi asosiy hujjat;

huquqiy bilimlarni oshirish – tegishli sohada faoliyat yuritish uchun lozim bo'lgan huquqiy bilimlarni egallash va amaliyotda qo'llay olish ko'nikma hamda kompetensiyalarini shakllantirish.

1.2. Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha qisqa muddatli professional o'qitish kurslarida:

talabgor – professional o'qitish kurslarida ta'lim olish uchun murojaat qilgan, ingliz tilini amaliyotda erkin qo'llay olish darajasida biladigan shaxs;

tinglovchi – belgilangan miqdordagi to'lov-kontrakt pulini to'lagan hamda Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktorining buyrug'i bilan professional o'qitish kurslariga qabul qilingan shaxs;

yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha qisqa muddatli professional o'qitish kurslari – investitsiya va tijorat faoliyatida xalqaro huquq asoslarini shakllantirishni ta'minlashga, shuningdek, xalqaro yuridik amaliyotda ularning kasbiy bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan kadrlarni qisqa muddatli o'qitish shakli;

tayanch kurs – xalqaro tijorat faoliyati, xalqaro arbitraj va sud nizolarini huquqiy ta'minlash sohasida asosiy malaka va ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan kurslar;

sohaviy kurs – xalqaro investitsiya va tijorat faoliyatini samarali huquqiy qo'llab-quvvatlash orqali ta'minlash, xalqaro xususiy, tijorat huquqi, xalqaro arbitrajning moddiy va protsessual huquq normalarini qo'llash, ilg'or advokatlik texnikasi, aktivlarni xalqaro qidirish va qaytarish, xalqaro tergov qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya qilish hamda boshqa shu kabi muayyan sohaga oid bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan kurslar;

ingliz huquqining fundamental asoslari bo'yicha kurs – mamlakatda yaratilayotgan zamonaviy biznes va tadbirkorlik muhitida investorlar huquq va manfaatlarining ishonchli himoyasini ta'minlash maqsadida ingliz huquqi elementlari asosida tinglovchilarning sud pretsedenti, odat huquqi, shartnoma huquqi, arbitraj tartib-taomillari, investitsiya huquqi, advokatlik texnikasi, nizolarni muqobil hal qilish asoslari va boshqa shu kabi sohalar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan kurs.

1.3. Oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslarida:

an'anaviy ta'lim shaklida o'qish – o'quv dasturlarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda, qayta tayyorlash kurslarida bevosita ishtirok etish orqali to'liq o'zlashtirish;

masofaviy ta'lim shaklida o'qish – o'quv dasturlarini ishlab chiqarishdan ajralmagan holda onlayn (real vaqt rejimida) hamda oflayn (videoma'ruzalar, mavzuga doir ma'ruzalar matni, assesment topshiriqlari, amaliyot materiallari tahlili, kichik nazorat ishini bajarish orqali tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil ravishda o'zlashtirish) tarzda o'zlashtirish;

oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxslarni yuridik mutaxassislik bo'yicha qayta tayyorlash kurslari – davlat organlari va tashkilotlarining yuridik ma'lumot hamda bilim talab etadigan kasb va lavozimlarida faoliyat yuritish uchun yetarli darajadagi bilim olish va ko'nikma shakllantirishni nazarda tutadigan oliy ta'limdan keyingi o'qitish shakli;

talabgor – qayta tayyorlash kurslarida ta'lim olish uchun murojaat qilgan oliy ma'lumotga ega bo'lgan shaxs;

tinglovchi – kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tgan, o'qish uchun kontrakt to'lovini to'lagan va qayta tayyorlash kurslariga qabul qilingan shaxs.

1.4. Umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beradigan, oliy noyuridik ma'lumotga ega pedagog kadrlarni qayta tayyorlash kurslarida:

buyurtmanoma – muayyan davr uchun buyurtmachi tomonidan pedagog kadrlarni kasbiy qayta tayyorlash kurslariga qabul qilish uchun Yuridik kadrlarni

qayta tayyorlash va malakasini oshirish institutiga taqdim etiladigan pedagog kadrlar ro'yxati;

buyurtmachi – O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi va tizimida umumiy o'rta, o'rta maxsus hamda kasbiy ta'lim muassasalari bo'lgan vazirliklar hamda idoralar, shuningdek, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim sohasidagi nodavlat ta'lim tashkilotlari;

masofaviy ta'lim – o'quv dasturlarini ishlab chiqarishdan ajralmagan holda, onlayn (real vaqt rejimida) hamda offlayn (videoma'ruzalar, mavzuga doir ma'ruzalar, matni, assesment topshiriqlari, amaliyot materiallari tahlili, kichik nazorat ishini bajarish orqali tegishli o'quv-metodik resurslarni mustaqil bajarish) rejim orqali axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda masofadan turib o'zlashtirish;

pedagog kadr – umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beruvchi mutaxassis;

talabgor – kasbiy qayta tayyorlash kurslarida o'qitish maqsadida belgilangan tartibda tasdiqlangan reja-grafikka muvofiq buyurtmanoma asosida yo'naltirilgan shaxs;

tinglovchi – o'qish uchun to'lov-kontrakt summasini to'lagan va kasbiy qayta tayyorlash kurslariga qabul qilingan shaxs;

umumiy o'rta, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beradigan, oliy noyuridik ma'lumotga ega pedagog kadrlarni qayta tayyorlash kurslari – umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlar bo'yicha yuqori saviyada pedagogik faoliyatni yuritish uchun yetarli darajadagi bilim olish va ko'nikma shakllantirishni nazarda tutadigan o'qitish shakli.

2. Qo'llanish sohasi

2.1. Ushbu Davlat ta'lim talablari Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti (keyingi o'rinlarda – Institut)da yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish faoliyatini, tashkiliy va o'quv metodik va uslubiy ta'minlash maqsadida qo'llaniladi.

2.2. Davlat ta'lim talablari yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv reja va dasturlari, ta'lim sifatini baholash va nazorat qilish bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

2.3. Davlat ta'lim talablari:

yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi tuzilmasini;
yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirishning asosiy turi va shakllarini;

yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning mazmuni va sifatiga qo'yiladigan umumiy hamda asosiy talablarni;

yuridik kadrlarning nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malaka kompetensiyalari uchun zarur va yetarli darajasini hamda ularga qo'yiladigan umumiy malaka talablarini;

yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sifatini baholash hamda nazorat qilish tartibini belgilaydi.

2.4. Mazkur Davlat ta'lim talablari Institutga o'qishga yuboriladigan adliya organlari va muassasalari xodimlari, advokatlar, notariuslar, yuriskonsultlar, intellektual mulk sohasi va patent vakillari, mediatorlar, arxiv ishi va ish yuritishga mas'ul xodimlar, davlat va nodavlat sud ekspertlari, umumiy o'rta, o'rta maxsus va kasbiy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlardan dars beruvchi pedagog kadrlar hamda tegishli kurslarda o'qishga qabul qilingan tinglovchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun amal qiladi.

3. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi tuzilmasi

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi tuzilmasi quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti;

Adliya organlari va muassasalari, Advokatlar palatasi, Notarial palata, davlat va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari, vazirliklar hamda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar boshqa idora va tashkilotlar (keyingi o'rinlarda – Buyurtmachi tashkilotlar).

4. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshiruvchi davlat organlari hamda tashkilotlarining vakolatlari

4.1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Davlat ta'lim talablarini tasdiqlaydi.

4.2. Adliya vazirligi yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini uzluksiz muvofiqlashtiradi va ushbu faoliyatni takomillashtirish mexanizmlari hamda usullarini belgilaydi.

4.3. Institutning vakolatlari:

tegishli qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarini tashkil etadi;

qayta tayyorlash kursi tinglovchilari kasbiy faoliyatining sohasi davlat organlari va boshqa tashkilotlarning yuridik xizmatlaridagi, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlaridagi, davlat xizmatlari markazlaridagi hamda advokatura va notariat sohalarida faoliyatni amalga oshirishga qayta tayyorlaydi;

kasbiy o'qitishning ish jarayoni bilan birgalikda amalga oshiriladigan shakllarini (dual ta'lim) joriy qiladi va takomillashtirib boradi;

xalqaro miqyosda O'zbekiston Respublikasi manfaatlarini munosib ifoda eta oladigan yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitadi;

buyurtmachilarga malaka oshirish shakllarini kasbiy ehtiyojdan kelib chiqqan holda mustaqil tanlash imkoniyatini yaratadi;

yuridik kadrlarni mutaxassislik va huquqiy bilimlari bo'yicha malakasini oshiradi;

qonunchilik va sud-huquq sohasidagi ilmiy tadqiqotlar natijalarini yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayoniga joriy etadi;

yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv-uslubiy asoslarini ishlab chiqadi;

yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribani umumlashtiradi hamda ta'lim jarayoniga tatbiq qiladi;

tasdiqlangan reja-grafikka asosan yuridik kadrlarni zamonaviy ilmlarga asoslangan holda huquqiy bilimlarini oshiradi;

o'quv kurslari yakuni bo'yicha tinglovchilar bilimlarini baholaydi.

4.4. Buyurtmachi tashkilotlar:

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga bo'lgan ehtiyojni aniqlaydi, ularning qayta tayyorlash hamda malaka oshirishga yuboriladigan kontingentini shakllantiradi va tasdiqlangan taqsimot-reja asosida qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun yuborishni ta'minlaydi.

5. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning shakllari

5.1. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

o'quv mashg'ulotlarini bevosita Institutda tashkil etish;

o'quv mashg'ulotlarini xodimning ish joyida tashkil etish;

kredit-modul tizimi asosida o'qitish;

masofaviy ta'lim;

dual ta'lim.

5.2. O'quv mashg'ulotlarini xodimning ish joyida tashkil etish ishdan ajralmagan holda xizmat joyiga Institut tomonidan mutaxassislarni jalb etib, tegishli o'quv dasturlarini o'zlashtirishdan iborat.

5.3. Tegishli kurslarda kredit-modul tizimi bo'yicha malaka oshirish mutaxassis kadrlar malakasini oshirishning belgilangan davriyligiga rioya qilingan holda o'quv dasturi modullarini uzluksiz, mustaqil ravishda o'zlashtirib borishni nazarda tutadi.

Institutda kredit modul tizimida 1 kredit miqdori 2 akademik soatga teng. Kredit-modul tizimida malaka oshirish kurslari tinglovchidan 36 kredit (72 akademik soat) hajmdagi o'quv dasturini o'zlashtirishni talab qiladi.

O'quv kurslari bo'yicha bir kredit tarkibi va o'qish davrini tamomlash uchun tinglovchi tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlarning umumiy soni hamda ushbu shakl bo'yicha malaka oshirishning tartibi Adliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

5.4. Masofadan turib amalga oshiriladigan ta'lim axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadi va asosiy ishdan ajralmagan holda tashkil etiladi.

5.5. Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi.

6. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar

6.1. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan talablar nazariy va amaliy bilimlarning o'zaro mosligi, shuningdek, mutaxassislik bo'yicha zarur malaka hamda ko'nikmalarni o'rganishni inobatga olgan holda zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga mos bo'lishi lozim.

6.2. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv dasturlarini shakllantirishda quyidagilar hisobga olinadi:

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzluksizligi;
zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodlarni qo'llash bo'yicha ilg'or xorijiy tajriba hamda uni o'quv jarayoniga tatbiq etish;
ixtisoslik va tegishli fanlar bo'yicha yangi bilimlar;
ta'limning amaliy yo'naltirilganligi, amaliy-kasbiy tayyorgarlik;
qonunchilikdagi oxirgi o'zgartirishlar;
huquqbuzarliklarga murosasizlik;
ilmiy-tadqiqot va pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish;
zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va ularni xizmat faoliyatiga tatbiq etishning tashkiliy-metodik jihatlari.

7. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv yuklamasi va hajmi

7.1. Institutda tashkil etiladigan kurslarda auditoriya o'quv yuklamasining eng ko'p hajmi, qoida tariqasida, haftasiga 36 soat etib belgilanadi.

7.2. Institutda o'qitish davomiyligi, qoida tariqasida:

qayta tayyorlash kurslarida – 16 - 24 haftani;

maxsus tayyorlash kurslarida – 1 - 4 haftani;

malaka oshirish kurslarida – 1 - 4 haftani tashkil etadi.

7.3. O'quv kurslarida o'quv jarayoni, qoida tariqasida, 10 nafardan 25 nafargacha bo'lgan tinglovchilardan iborat akademik guruhlarda tashkil qilinadi.

Bunda auditoriya mashg'ulotlari barcha turlarining davomiyligi Institut tomonidan belgilanadi, lekin 80 daqiqadan oshmasligi va o'quv mashg'ulotlari oralig'idagi tanaffus 10 daqiqadan kam bo'lmasligi lozim.

8. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan umumiy talablar

8.1. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga qo'yiladigan umumiy talablar tegishli o'quv dasturlari bilan aniqlanadi.

8.2. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning mazmuni xodimlar tomonidan asosiy va qo'shimcha (yangi) bilim va ko'nikmalar olishga, shuningdek, yangi turdagi kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur malakalarni egallashga yo'naltirilgan.

8.3. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishning sifati ushbu tizim bo'yicha o'quv jarayonini yakunlagan xodimlarning zarur tayyorgarlik darajasi, ularning bilimlari va amaliy ko'nikmalarining yuridik kadrlarga qo'yiladigan zamonaviy talablar va xalqaro standartlarga mosligi bilan aniqlanadi.

8.4. O'quv dasturlari sohaga oid fanlarning ilg'or yutuqlariga, yuridik amaliyot va amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqiladi hamda o'quv jarayonining uzluksizligi va uzviyligi talablariga mos bo'lishi lozim.

9. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari tinglovchilariga beriladigan hujjatlar

Institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv kurslarini muvaffaqiyatli tamomlagan tinglovchilarga belgilangan namunadagi diplom va sertifikat beriladi.

10. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar

Mazkur Davlat ta'lim talablari yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarga, Vazirlar Mahkamasi, Adliya vazirligi, shuningdek, Institut tomonidan tasdiqlanadigan nizomlar, o'quv reja va dasturlar hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi.

11. O'quv jarayonini tashkil etish, nazorat qilish hamda baholash tartibi

11.1. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish Adliya vazirligi va Institut tomonidan tasdiqlangan reja-grafik asosida amalga oshiriladi.

11.2. Institutda qayta tayyorlash va malaka oshirish o'quv kurslariga tinglovchilarni qabul qilish Institut direktorining buyrug'i bilan rasmiylashtiriladi.

11.3. Institutda tashkil etiladigan qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilarining bilim saviyasi va o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun tegishli kurslardan kelib chiqib joriy, oraliq, yakuniy nazorat, yakuniy sinov imtihoni hamda Davlat attestatsiyasi o'tkaziladi. Joriy, oraliq, yakuniy nazorat va yakuniy sinov turlari og'zaki (suhbat), yozma yoki test shaklida o'tkazilishi mumkin.

11.4. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv kurslari sifatini ichki baholash Institut tomonidan amalga oshiriladi.

11.5. Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish o'quv kurslari sifatini tashqi baholash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan amalga oshiriladi.

12. Malaka talablari obyektining tavsifi

Malaka talablari obyektining tavsifi mazkur Davlat ta'lim talablari Institutning qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari tinglovchilariga qo'yiladigan umumiy talablarni belgilab beradi.

13. Boshqa hujjatlar bilan o'zaro aloqadorligi

Davlat ta'lim talablari Institutda ta'lim jarayonini boshqarishning yaxlit tizimini tashkil etadigan hujjatlar majmuida o'rin olgan.

14. Yakuniy qoidalar

Mazkur Davlat ta'lim talablariga Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Adliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi bilan kelishilgan holda yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish istiqbollariidan, tegishli ehtiyojlardan, yangi pedagogik texnologiyalarni va o'qitishning noan'anaviy shakllarini rivojlantirishdan, yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish sohasidagi xalqaro ilg'or tajribalardan kelib chiqib o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

Kelishildi:

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish
boshqarmasi boshlig'i



B.B. Sobirov

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Kadrlar malakasini oshirish, qayta
tayyorlash va ekologik diplomatiya bo'limi
boshlig'i



F.T. Esonboboyev

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
Ta'lim muassasalari faoliyatini tahlil qilish
bo'limi bosh mutaxassisi



I.A. Eshmamatov

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Pedagog kadrlarni tayyorlash va kasbiy
rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i



M.A. Yuldashev

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Pedagog kadrlarni tayyorlash va qayta
tayyorlash bo'limi boshlig'i



A.A. Baxramov

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
Pedagog kadrlar malakasini oshirish va
kasbiy rivojlantirish bo'limi boshlig'i



S.R. Qodirov

Adliya vazirligi Yuridik ta'lim va
sud-ekspertiza boshqarmasi boshlig'i




J.M. Nuritdinov

Adliya vazirligi Yuridik ta'lim bo'limi
boshlig'i




O.S. Boyquvatov

O'zbekiston Respublikasi Advokatlar
palatasi raisi



Sh.Sh. Sadikov

O'zbekiston Respublikasi Notarial
palatasi raisi o'rinbosari



J.Q. Raxmonov

Ishlab chiqildi:

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktori




Y.S. Kanyazov

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti direktorining
o'quv ishlari bo'yicha birinchi o'rinbosari



R.X. Xursanov

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti direktorining ilmiy ishlar va xalqaro hamkorlik bo'yicha o'rinbosari



F.B. Maxmudov

Yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti O'quv-uslubiy bo'lim boshlig'i v.b.



A.K. Yusupbayeva

Yuridik kadrlarni xalqaro standartlar bo'yicha professional o'qitish fakulteti dekani v.b.



S.A. Yuldoshev